

**BOLALARNI JAMIYATGA MOSLASHTIRISHDA IJTIMOY
MUASSASALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING
DOLZARBLIGI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18210773>

Sultonova Nazokatxon

FarDu 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Bugungi kunda bolalar va o'smirlarning to'g'ri rivojlanishi, ularga o'z vaqtida erta aralashuvning amalga oshirilishi muhim masalalardan biriga aylangan. Ushbu maqolada bolalarni ijtimoiy moslashtirishda ijtimoiy muassasalarining o'rnini yoritish ushbu masalalarni rivojlantirishga oid takliflar mavjud.

Kalit so'zlar

jamiyat, bolalik, "g'amxo'rlik" guruhlari, ota-ona, mahalla, xorij tajribasi, maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi.

**THE RELEVANCE OF IMPROVING THE ACTIVITIES OF SOCIAL
INSTITUTIONS IN ADAPTING CHILDREN TO SOCIETY**

Sultonova Nazokatxon

Fergana State University

Master's student (2nd year),

Abstract

Today, ensuring the proper development of children and adolescents, as well as implementing timely early intervention, has become one of the most important issues. This article highlights the role of social institutions in the social adaptation of children and presents proposals aimed at improving and developing this field.

Keywords

society, childhood, "care" groups, parents, mahalla, foreign experience, school, preschool educational institution.

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОЦИАЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ К ОБЩЕСТВУ

Султонова Назокатхон

магистрант 2-курса ФерГУ

Аннотация

В современных условиях правильное развитие детей и подростков, а также своевременное осуществление раннего вмешательства становятся одной из наиболее актуальных задач. В данной статье раскрывается роль социальных учреждений в процессе социальной адаптации детей, а также представлены предложения, направленные на совершенствование и развитие данной сферы.

Ключевые слова

общество, детство, группы «забота», родители, махалля, зарубежный опыт, школа, дошкольное образовательное учреждение.

KIRISH. Bolalarni jamiyatga moslashtirish jarayoni uzluksiz va ko'p omilli bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, kunduzgi parvarish markazlari, ijtimoiy xizmatlar hamda mahalla institutlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur muassasalar faoliyatida ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga to'liq ta'sir ko'rsata olmayotgan qator muammolar ham mavjud. Bolalarni jamiyatga moslashtirish masalasi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, inson kapitalining sifat jihatdan yuksalishi, avvalo, bolalar va o'smirlarning to'laqonli ijtimoiylashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy moslashuv jarayoni bolaning jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishi, mustaqil hayotga tayyorlanishi hamda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishini anglatadi.

METODLAR. Maqolani yoritishda qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi, turli ijtimoiy institutlarning bolalarning rivojlanishi tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Bolalarda ijtimoiylashuv jarayoni uzluksiz bo'lib, u erta bolalik davridan boshlanadi va o'smirlik davrigacha davom etadi. Mazkur jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, kunduzgi parvarish markazlari, ijtimoiy himoya muassasalari hamda mahalla institutlari

muhim ijtimoiy institutlar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, bolalarni jamiyatga moslashtirishda ushbu muassasalar faoliyatini takomillashtirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xususan Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida asosiy va yetakchi bo'g'in hisoblanadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi hamda jamiyat talablariga moslashuvi aynan 3–7 yosh davrida eng faol kechadi. Shu sababli mazkur bosqichda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat keyingi rivojlanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida ushbu muassasalarning qamrovi kengaytirildi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvlar joriy etildi[1]. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy moslashuv masalasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotgan holatlar ham mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasalariga muntazam qatnayotgan bolalarda jamoada o'zini tutish, tengdoshlar bilan muloqotga kirishish, nizoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari nisbatan yuqori darajada shakllangan. Aksincha, ushbu muassasalarga jalb qilinmagan yoki notekis qatnagan bolalarda ijtimoiy tortinchoqlik, emotsional beqarorlik va moslashuvdagi qiyinchiliklar ko'proq uchraydi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy moslashuv jarayonini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchidan, har bir bola uchun individual ijtimoiy rivojlanish xaritasini joriy etish zarur. Ushbu xaritada bolaning muloqot darajasi, emotsional holati, jamoaga moslashuv ko'rsatkichlari hamda ijtimoiy faolligi muntazam monitoring qilinib borilishi lozim.

Ikkinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday mashg'ulotlar rolli o'yinlar, jamoaviy faoliyatlar, muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan treninglar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, tarbiyachi, psixolog va ijtimoiy pedagoglarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning jamoaviy yondashuvi orqali ijtimoiy rivojlanishdan ortda qolish xavfi mavjud bolalarni erta aniqlash va ular bilan individual ishlash imkoniyati yaratiladi.

To'rtinchidan, ota-onalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarur. Ota-onalar uchun ijtimoiy tarbiya, bolalarning jamoadagi xulq-atvori va muloqot madaniyatiga oid ma'rifiy seminar va treninglar tashkil etilishi bolalarning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ijtimoiy moslashuviga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, Finlyandiya ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolani akademik tayyorlashdan ko'ra, uning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu mamlakatda bolalarda hamkorlik, muomala madaniyati va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun jamoaviy o'yinlar va erkin faoliyat ustuvor ahamiyat kasb etadi. Germaniya maktabgacha ta'lim muassasalarida esa bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda inklyuziv yondashuv keng qo'llaniladi. Nogironligi mavjud va sog'lom bolalar birgalikda tarbiyalanib, ularda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va ijtimoiy tenglik tushunchalari shakllantiriladi. Bu esa bolalarning jamiyatda faol va moslashuvchan shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Yaponiya tajribasida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning jamoaga moslashuvi kundalik faoliyat orqali amalga oshiriladi. Bolalar mustaqil ravishda tartibga rioya qilish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish va mas'uliyatni his etishga o'rgatiladi. Ushbu yondashuv bolalarda ijtimoiy intizom va jamoaviylikni erta yoshdan shakllantirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy moslashuv jarayonini takomillashtirishda bolaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, jamoaviy faoliyat, inklyuziv muhit va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali bolalarning ijtimoiy rivojlanish samaradorligini oshirish mumkin.

Bugungi kunda bolalarni jamiyatga moslashtirishda an'anaviy ta'lim muassasalari bilan bir qatorda muqobil ijtimoiy xizmatlar, xususan, "Kunduzgi parvarish" va "G'amxo'rlik" xizmatlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu xizmatlar, asosan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ota-onasi band bo'lgan yoki murakkab ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bolalarning xavfsizligi, rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda.[3]

Milliy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida "Kunduzgi parvarish" va "G'amxo'rlik" xizmatlari ijtimoiy xizmatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda. Mazkur xizmatlar orqali bolalarga

kundalik parvarish, pedagogik yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu xizmatlardan foydalangan bolalarda maktabga tayyorgarlik darajasi va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'ladi[2]-

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda kunduzgi parvarish xizmatlari bolalarni ijtimoiylashtirishning samarali mexanizmi sifatida keng qo'llaniladi. Jumladan, Shvetsiya va Norvegiya kabi Skandinaviya davlatlarida kunduzgi parvarish markazlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ular bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Ushbu mamlakatlarda kunduzgi parvarish muassasalari nafaqat parvarish, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik muhit sifatida faoliyat yuritadi. Buyuk Britaniya tajribasida esa "day care" va "child care support services" tizimi orqali ijtimoiy xavf guruhiga mansub bolalar bilan individual ishlash mexanizmlari joriy etilgan. Bu xizmatlar doirasida bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasi muntazam baholanadi hamda ehtiyojga qarab psixolog va ijtimoiy xodimlar jalb etiladi. Shuningdek, Janubiy Koreya tajribasida "G'amxo'rlik" xizmatlariga o'xshash markazlar bolalarda ijtimoiy intizom, mas'uliyat va jamoaviylikni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, maktabdan tashqari vaqtda bolalarni mazmunli faoliyat bilan band etishga katta e'tibor qaratiladi. Mazkur milliy va xalqaro tajribalarni umumlashtirgan holda, "Kunduzgi parvarish" va "G'amxo'rlik" xizmatlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib, kunduzgi parvarish markazlari tarmog'ini kengaytirish;
- xizmatlar faoliyatiga ijtimoiy pedagog va psixologlarni muntazam jalb etish;
- bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasini baholash uchun yagona monitoring mezonlarini joriy etish;
- davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

Bolalarni jamiyatga moslashtirish jarayonida oila va mahalla institutlari ham alohida o'rin tutadi. Oila bolaning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, unda bolaning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari shakllanadi. Mahalla esa oiladan keyingi muhim ijtimoiy institut sifatida bolalarning ijtimoiy rivojlanishida muhim ko'prik vazifasini bajaradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oiladagi psixologik muhit, ota-onaning tarbiyaviy saviyasi va ijtimoiy faolligi bolaning jamiyatga moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Noto'liq oilalar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch kelgan yoki tarbiyaviy imkoniyatlari cheklangan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarda ijtimoiy

moslashuvdagi qiyinchiliklar ko'proq uchraydi. Shu sababli, bunday oilalar bilan tizimli ishlashda mahalla institutining o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasida mahalla fuqarolar yig'inlari aholining ijtimoiy muammolarini hal etishda muhim bo'g'in sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Prezident farmon va qarorlarida mahallaning ijtimoiy himoya tizimidagi o'rni va vakolatlari kengaytirilgani bejiz emas. Mahalla orqali ehtiyojmand oilalarni aniqlash, bolalarning yashash sharoitini o'rganish va ularga manzilli yordam ko'rsatish imkoniyati mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi yo'lga qo'yilgan hududlarda bolalarning ijtimoiy faolligi, maktabga moslashuvi va jamoatchilik tadbirlarida ishtiroki yuqori bo'ladi. Bunday hamkorlik bolalarda mas'uliyat, jamoaviylik va fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda oila va mahalla institutlari hamkorligini kuchaytirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

- ijtimoiy xavf guruhiga mansub oilalar bilan ishlashda mahalla, maktab va ijtimoiy xizmatlar o'rtasida doimiy axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;
- ota-onalar uchun tarbiyaviy va psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan seminar va treninglarni tashkil etish;
- mahalla hududida bolalar va o'smirlar uchun ijtimoiy faollikni oshiruvchi to'garaklar, sport va madaniy tadbirlarni ko'paytirish;
- ijtimoiy ishchi va psixologlarni mahalla faoliyatiga faol jalb etish.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, AQSh va Kanadada "community-based approach" asosida mahalla darajasida oilalar bilan ishlash keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu modelda bolalarning muammolari bevosita yashash hududida aniqlanib, ta'lim muassasalari va ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlikda hal etiladi. Yaponiya tajribasida esa mahalla hamjamiyati bolalar tarbiyasida faol ishtirok etib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga katta e'tibor qaratiladi.

Nogironligi mavjud hamda ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni jamiyatga moslashtirishda inklyuziv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim va reabilitatsion xizmatlar bolalarning jamiyatda teng ishtirok etishini ta'minlaydi[4]. Bolalar va o'smirlarni jamiyatga moslashtirish jarayonida muassasalarning o'rni ularning tashkiliy tuzilmasi, xizmatlar sifati hamda ijtimoiy hamkorlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonga umumiy yondashuv asosida qaralganda, bolalarning individual ehtiyojlari, psixologik holati va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi markaziy o'ringa qo'yilishi lozim bo'ladi.

Muassasalar faoliyati faqatgina parvarish yoki nazorat bilan cheklanib qolmasdan, balki bolalarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va jamiyatda o'z

o'rnini topishiga xizmat qiladigan kompleks rivojlantiruvchi muhitni shakllantirishga yo'naltirilishi zarur. Bunda ta'lim, tarbiya, psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlarining o'zaro uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, muassasalar faoliyatini tashkil etishda oila va mahalla institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish orqali ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish talab etiladi. Bu esa bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonini uzluksiz va tizimli tarzda olib borishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qarori.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-avgustdagi 490-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
4. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. Paris, 2020.